

Mavluda Qodirova,
Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti
mavludaqodirova@gmail.com

UDK:37.013:373.3

**BO‘LAJAK PEDAGOGLARDA BADIY-TARIXIY ASARLAR
VOSITASIDA SHAXSIY SIFATLARNI RIVOJLANTIRISHNING
PEDAGOGIK MODEL**

Annotatsiya: Badiiy-tarixiy asarlar orqali shaxsiy sifatlarni rivojlantirishning pedagogik modeli bu jarayonni tizimli va maqsadli tashkil qilishni ko‘zda tutadi. Badiiy-tarixiy asarlarning didaktik imkoniyatlaridan samarali foydalanish orqali nafaqat bilim, balki tarbiya berish jarayonining uzviyligi va samaradorligi ta‘minlanadi. Mazkur maqolada badiiy-tarixiy asarlar orqali shaxsiy sifatlarni rivojlantirishning pedagogik modelining bo‘lajak pedagoglarning axloqiy, estetik, va ijodiy sifatlarini rivojlantirishga qaratilganligi va tarkibiy qismlari muhokama qilinadi.

Kalit so‘zlar: bo‘lajak pedagog, shaxsiy sifatlar, badiiy-tarixiy asarlar, pedagogik model, didaktik imkoniyatlar

Mavluda Kadirova,
PhD student of Namangan State University
mavludaqodirova@gmail.com

**A PEDAGOGICAL MODEL OF DEVELOPING PERSONAL QUALITIES IN
FUTURE TEACHERS THROUGH ARTISTIC-HISTORICAL WORKS**

Abstract: The pedagogical model of development of personal qualities through artistic and historical works provides for a systematic and purposeful organization of this process. Through the effective use of the didactic potential of artistic and historical works, the continuity and efficiency of the process of providing not only knowledge to future teachers, but also upbringing is ensured. This article discusses the purpose and components of the pedagogical model of developing personal qualities through artistic and historical works to develop the moral, aesthetic, and creative qualities of future teachers.

Keywords: future teacher, personal qualities, artistic and historical works, pedagogical model, didactic potential

Мавлюда Кадилова,

Докторант Наманганского государственного университета

mavludaqodirova@gmail.com

ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ МОДЕЛЬ РАЗВИТИЯ ЛИЧНОСТНЫХ КАЧЕСТВ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ЧЕРЕЗ ХУДОЖЕСТВЕННО- ИСТОРИЧЕСКИЕ ПРОИЗВЕДЕНИЯ

Аннотация: Педагогическая модель развития личностных качеств через художественно-исторические произведения предусматривает системную и целенаправленную организацию этого процесса. За счет эффективного использования дидактического потенциала художественно-исторических произведений обеспечивается непрерывность и эффективность процесса предоставления будущим учителям не только знаний, но и воспитания. В данной статье рассматриваются цель и компоненты педагогической модели развития личностных качеств через художественно-исторические произведения для развития нравственных, эстетических и творческих качеств будущих учителей.

Ключевые слова: будущий учитель, личностные качества, художественно-исторические произведения, педагогическая модель, дидактический потенциал

Kirish

Bo'lg'usi pedagoglarda shaxsiy sifatlarni rivojlantirish, ta'lim jarayonining asosiy maqsadlaridan biri hisoblanadi. Bu jarayonni amalga oshirishda badiiy-tarixiy asarlarning o'rni beqiyosdir. Badiiy-tarixiy asarlar nafaqat estetik tafakkur va madaniyatni shakllantirishga xizmat qiladi, balki shaxsiy rivojlanishni, intellektual va ruhiy o'sishni ta'minlaydi [1]. Badiiy-tarixiy asarlar, ayniqsa bo'lajak pedagoglarning shaxsiy sifatlarini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. Bu asarlar nafaqat estetik va axloqiy qiymatlarni o'rgatadi, balki shaxsning ichki dunyosini kengaytirishga, dunyoqarashini shakllantirishga yordam beradi. Badiiy-tarixiy asarlarda aks etgan turli xarakterlar, voqealar va tarixiy shaxslar, yosh

pedagoglarni butun dunyo va jamiyatdagi turli hodisalar va muammolarga nisbatan chuqurroq fikrlashga undaydi.

Adabiyotlar tahlili

Badiiy-tarixiy asarlar o'z mohiyatida insoniyatning eng yuksak axloqiy va estetik qadriyatlarini aks ettiradi. Adabiyotdagi qahramonlar turli axloqiy tanlovlar bilan yuzlashadilar, ularning qarorlari, muammolarni hal qilish usullari, o'ziga bo'lgan munosabati, boshqalarga bo'lgan hurmat va mehrga asoslanadi. Bu jarayonlar orqali bo'lajak pedagoglarda axloqiy savodxonlik, estetik sezgirlik va boshqalarga bo'lgan hissiy munosabatlar shakllanadi. Ushbu sifatlar o'qituvchining o'ziga xos pedagogik uslublarini yaratish va o'z-o'zini rivojlantirishga yordam beradi [2].

Badiiy-tarixiy asarlar orqali pedagoglarning shaxsiy motivatsiyasi kuchayadi. Tarixiy va badiiy asarlarda ko'plab personajlar o'z orzulariga erishish, qiyinchiliklarga qarshi kurashish, adolatni tiklash yoki haqiqatni izlash yo'lida katta fidoyilik ko'rsatadilar. Ushbu xarakterlar bo'lajak pedagoglarga o'z maqsadlariga intilish, turli to'siqlarga qarshi kurashish va shaxsiy o'sishga bo'lgan ishtiyoqni kuchaytiradi. Masalan, o'qituvchilar o'zlarining kasbiy faoliyatida ham xuddi shu fidoyilik va qat'iyatlilikni namoyish etishlari kerak.

Badiiy-tarixiy asarlar bo'lajak pedagoglarga tarixiy, madaniy va ijtimoiy kontekstlarni chuqurroq tushunishga yordam beradi. Tarixiy asarlarda keltirilgan voqealar, insoniyat tarixidagi muhim davrlar, insonlarning kurashi va g'alabasi o'qituvchilarni kengroq dunyoqarashga ega qilishga xizmat qiladi [3]. Shu orqali o'qituvchi nafaqat o'quvchilarni o'qitishda, balki ularga tarix, madaniyat va axloqiy qadriyatlar haqida to'g'ri tasavvur shakllantirishda ham muhim rol o'ynaydi.

Badiiy asarlar orqali o'qituvchi empatiya – boshqalarning his-tuyg'ularini tushunish va ularga munosabat bildirish qobiliyatini rivojlantiradi. Tarixiy personajlar va badiiy asarlarning qahramonlari turli inqirozlar, ijtimoiy va shaxsiy muammolar bilan kurashadi, bu esa o'qituvchining boshqalarning qiyinchiliklarini anglash va ularga yordam berish istagini uyg'otadi [4]. O'qituvchilar badiiy

asarlarni o'qib, turli xil xarakterlarni, ularning his-tuyg'ularini va qarorlarini tahlil qilgan holda, boshqalar bilan hamdardlik qilishni o'rganadilar.

O'qituvchining estetik didini rivojlantirishda badiiy-tarixiy asarlar katta o'rin tutadi. O'qituvchilar asarlarni o'qib, nafaqat ular haqida tafakkur qilishadi, balki asarlardagi uslublarni, ifoda vositalarini, hikoya qilish texnikalarini o'rganadilar. Shu bilan birga, ular o'zlarining pedagogik faoliyatlarida ham shaxsiy didlarini yuksaltirishga imkoniyat yaratadilar. Masalan, o'qituvchilar sinfda adabiy asarlarni tahlil qilish jarayonida estetik va adabiy qadriyatlarni o'quvchilarga etkazishga muvaffaq bo'ladilar.

Badiiy-tarixiy asarlar, ayniqsa, dialoglar va munozaralar shaklida, o'qituvchining tanqidiy fikrlash va muloqot qobiliyatini rivojlantiradi [5]. Asarlarda turli fikrlar, qarorlar va holatlar mavjud bo'lib, o'qituvchi o'zi va o'quvchilari bilan ulardagi tahlilni amalga oshirgan holda, o'z fikrlarini mustahkamlaydi va boshqa fikrlarni qabul qilishga tayyor bo'ladi. Bu sifatlar pedagogning o'quvchilar bilan samarali muloqot o'rnatishiga yordam beradi va uning professional rivojlanishiga zamin yaratadi [6]. Shuningdek, badiiy-tarixiy asarlarda har bir voqea va xarakterni tahlil qilish, uning ma'nosini va pedagogik ahamiyatini tushunish pedagogning ijodiy va analitik tafakkurini rivojlantiradi. O'qituvchilar asarlarda muammolarni hal qilish, xarakterlar o'rtasidagi munosabatlarni o'rganish va tahlil qilish orqali o'zlarining ijodiy qobiliyatlarini oshiradilar. Bu esa o'quvchilarga murakkab pedagogik vazifalarni hal qilishda yordam beradi.

Tadqiqotni olib borish davrida nazariy materiallarni tahlil qilish hamda oliy ta'lim muassasalari ta'lim tarbiya jarayonida tarixiy-badiiy asarlar vositasida bo'lajak pedagoglarda shaxsiy sifat sifatlarini rivojlantirishga qaratilgan ishlar mazmuni va holatlari o'rganildi. Muammoni nazariy jihatdan o'rganish istiqlol yillaridan avval ham yoshlar, xususan, bo'lajak pedagoglarda shaxsiy sifatlarini rivojlantirish an'analari ruhida tarbiyalash ijtimoiy tarbiya hamda kasbga yo'naltirish jarayonining ajralmas qismi sifatida o'rganilgan.

Bo'lajak pedagoglarda shaxsiy sifatlarini rivojlantirish bo'yicha qabul qilingan chora-tadbirlar shaxsiy qudrati va salohiyatini yanada oshirish imkonini berdi. Zamon umumiy o'zgarishlar mohiyatini etarlicha tushuna olishi, o'zi faoliyat yuritadigan qo'shinlarda sohaga taalluqli barcha jarayonlardan xabardor bo'lishi, yuksak darajada shaxsiy bilim, malaka va ko'nikmaga ega bo'lishi zarur.

Natijalar va tahlillar

Izlanishlarimiz natijasida milliy tajribalar va ilg'or davlatlar ta'lim tizimidagi innovatsion yondashuvlar, pedagogik, psixologik va badiiy hamda tarixiy adabiyotlarni o'rganish asosida integrativ model ishlab chiqildi.

Integrativ model – bu bir nechta ta'lim va tarbiya elementlarini yagona tizimga birlashtirish orqali maqsadli natijaga erishishni ko'zda tutadigan pedagogik yondashuvdir. Tarixiy-badiiy asarlar vositasida bo'lajak pedagoglarning shaxsiy sifatlarini rivojlantirishning integrativ modeli quyidagi asosiy tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi: maqsad, mazmun, metodlar, vositalar va natijalar.

Modelda bo'lajak pedagoglarni shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga oid vazifalarni bajarish uchun imkoniyatlardan foydalanish uchun muhim faktor sanaladi. Bo'lajak pedagoglarda badiiy – tarixiy asarlar vositasida shaxsiy sifatlarini rivojlantirish ning tashkiliy-metodik asoslari, mazmuni, qo'llaniladigan badiiy yondashuvlarni optimal tarzda taqdim etish uchun uning pedagogik modeli va uni ta'lim amaliyotiga joriy etish mexanizmlarini ishlab chiqish talab etiladi.

Tadqiqotda taklif etilgan model to'rtta blokdan tashkil topd: maqsadli blok, mazmunli blok, diagnostik-monitoring blok va natijaviy blok.

Maqsadli blok - ijtimoiy buyurtma sifatida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 8-oktabrdagi Oliy ta'lim tashkilotlari tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi va boshqa xuquqiy me'yoriy manbalar asos qilib olindi. Tadqiqotimizning asosiy maqsadi esa pedagogikaga oid fanlarini o'qitishda interaktiv 3D virtual dinamik modellarni qo'llash metodikasini takomillashtirishdan iborat edi.

Mazmunli blok - bo'lajak pedagoglarda badiiy – tarixiy asarlar vositasida shaxsiy sifatlarini rivojlantirishning asosiy bosqichlari - dars va darsdan

tashqari, oila muhitda o'qish, talabalarda kitob va undan foydalanishni rivojlantirish bosqichlari, turlari hamda jarayonga ijobiy ta'sir yetuvchi omillarni o'z ichiga oladi. Tadqiqot davomida ayon bo'ldiki, talabalar shaxsiy sifatlarini rivojlantirishda kitob va undan foydalanish modelida talabalarni bilish faolligini rivojlantirishda ijobiy natijaga yerishildi. Shunday qilib, mazkur blok talabalar shaxsiy sifatlarini rivojlantirishda kitob va undan foydalanish modelini qo'llash jarayoni vizual namoyish yetish, interaktiv va dinamik yondoshuvlar asosida ta'lim-tarbiya, nazariy amaliyotni Bo'lajak pedagoglarda badiiy – tarixiy asarlar vositasida shaxsiy sifatlarini rivojlantirishning parallel ravishda olib borishni nazarda tutadi.

Bo'lajak pedagoglarda badiiy – tarixiy asarlar vositasida shaxsiy sifatlarini rivojlantirishning metodik tizimini takomillashtirish modelini o'quv jarayonidagi didaktik imkoniyatlari asos qilib, talabalarni o'zlashtirish ko'rsatkichlari ko'rgazmali (illyustatsiya, namoyish yetish), reproduktiv metodlar yordamida amalga oshiriladi.

Natijaviy blok - natijaviylik funksiyani bajaradi va tadqiqotning amaliy jihatini tavsiflab, pedagogik tajriba-sinov bosqichlari, baholash mezonlari va talabalarni o'zlashtirish darajalarini aks ettiradi.

Bo'lajak pedagoglarda badiiy – tarixiy asarlar vositasida shaxsiy sifatlarini rivojlantirishning uzluksiz davom yettirish murakkab jarayon sanalib, u ko'pgina mezonlar asosida tarkib topgan. Binobarin, tadqiqot jarayonida ilm olish, o'zlikni anglash, komillikka intilish kabi sifatlarini rivojlantirishda alohida o'rin tutuvshi “Asar qaxramoni portretini yaratish”, “Kitob tanlash”, “Ijtimoiy faol talaba”, “Kitob o'qish yekrani” kabi amaliy-kommunikativ ta'limiy o'yinlar, “Kitobning ma'lumotli kartoshkasi”, “Kitobxonlar anjumani” nomli rag'batlantiruvchi strategiyalar tizimlashtirilgan. Masalan, “Asar qaxramoni portretini yaratish” uchun ilgari taklif qilingan materiallardan foydalanish yoki bir nechta masalalarni muhokama qilish va guruhning umumlashtirilgan “Asar qaxramoni portreti”dan ham foydalanish mumkin. Tadqiqot ishini olib borishda tarixiy-badiiy asarlar vositasida talabalarda shaxsiy sifatlarini rivojlantirish

muammosining nafaqat nazariyadagi, shu bilan birga amaliyotdagi ahvoli ham o'rganildi. Asoslovchi tajriba ishlariga jalb etilgan respondent-talabalar o'rtasida anketa so'rovlarini o'tkazish, suhbat hamda savol-javoblarni tashkil etish, talabalarning faoliyatini kuzatish orqali ularning badiiy asarlar mavzusiga oid tarixiy-badiiy asarlar, shuningdek, shaxsiy sifatlariga egaliklari baholandi. Bo'lajak pedagoglarda badiiy – tarixiy asarlar vositasida shaxsiy sifatlarini rivojlantirishning ma'naviy-ma'rifiy ishlar yo'nalishlarida olib borilayotgan shaxsiy-pedagogik faoliyat mazmunini tahlil qilish ham talabalarning shaxsiy sifatiga oid tarixiy-badiiy asarlardan xabardorliklari va shaxsiy sifatlariga egaliklarini obyektiv baholashga imkon berdi.

Xulosa

Demak, badiiy-tarixiy asarlar orqali pedagoglarning shaxsiy sifatlarini rivojlantirish, o'qituvchi sifatida kasbiy mahoratni oshirishga yordam beradi. Badiiy asarlarning ahamiyatini tushunish, ularni ta'lim jarayoniga samarali integratsiya qilish bo'lajak pedagoglarni o'z ishiga mas'uliyat bilan yondashishga, boshqalarga hurmat ko'rsatishga, yuksak estetik va axloqiy qadriyatlarni qabul qilishga o'rgatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Zamilova R.E. "Qahramonlar va qahramonlik"ning shaxs shakllanishiga ta'siri: fals. fan. nom. dis. ... avtoref. – Toshkent, 2017.
2. Mahkamov S. Ijtimoiy fanlarni o'rganishga integratsion yondashuv – dars samaradorligini oshirish omili // Xalq ta'limi j. – T.: 2004. 5-son. – 48-51-b.
3. Pirlapas o'g'li, J. R. (2023). MAKEDONIYALIK ALEKSANDRNING HARBIY YURUSHLAR HARBIY FAOLIYATI HAQIDA. *Лучшие интеллектуальные исследования*, 10(1), 36-37.
4. Mamurova, M. (2023). "SPITAMEN" ROMANIDA BOSH QAHRAMON TASVIRI IMAGE OF THE MAIN CHARACTER IN THE NOVEL "SPITAMEN". *Philological issues are in the eyes of young researchers*, 1(1).
5. Grynova, M., Zhamardiy, V., Kravchenko, I., Shkola, O., Donchenko, V., Peleshenko, I., & Lyvatskyi, O. (2023). PEDAGOGICAL CONDITIONS FOR THE FORMATION OF THE READINESS OF FUTURE SPECIALISTS IN PHYSICAL REHABILITATION TO WORK WITH ATHLETES OF WATER SPORTS IN THE PROCESS OF PROFESSIONAL TRAINING. *Acta Balneologica*, 178(6).

6. Shadiyeva, N. S., & Rahimova, S. H. (2024). TA'LIM JARAYONIDA PEDAGOGIC MAHORATGA ZAMONAVIY YONDASHUV. *Journal of new century innovations*, 63(1), 45-48.
7. Кадирова, М. 2024. Педагогическое значение исторических и художественных произведений в развитии личностных качеств будущих педагогов. *Зарубежная лингвистика и лингводидактика*. 2, 2/S (авг. 2024), 255–262. DOI:<https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol2-iss2/S-pp255-262>.